

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 102 (1701), 2026-yil 21-may, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



MILLAT SHAVKATI



I

Samarqandning o‘tmishi nihoyatda qadimiy. Ammo bu kentni o‘z saltanatiga markaz qilgan, uning ulug‘vor va sharafli tarixida o‘chmas iz qoldirgan, shaharning salobatiga salobat qo‘shgan hukmdorlar ko‘p emas. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Yalang‘o‘sh Bahodir... Bu nomlar bizgacha bo‘lgan ming yillikni tamsil etadi, xolos. Holbuki, shaharning tavalludi undan bir necha o‘n asrlar nariga borib taqaladi.

Bundan taqriban uch ming yillar oldin ham bu yerda madaniyat va san‘at, ilmu ma‘rifat gullab yashagan, o‘z chiroyi va latofati bilan insoniyat tafakkuriga nur berib turgan. Xususan, miloddan avvalgi IV asrda Samarqandni egallagan Iskandar Maqdunli (Aleksandr Makedonskiy)ning "...U men eshitganimdan ham go‘zalroq ekan" degan iqrori tarixiy manbalardan yaxshi ma‘lum. O‘z davrida dunyoning madaniy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy tayanchlaridan biri bo‘lgan Samarqand nafaqat

“yer yuzining sayqali”, balki zamonlar osha dunyo tartibini belgilovchi qudrat (derjava) poytaxti ham bo‘lgan.

Biroq bu muazzam kentning hayoti doim ham ravon kechmagan. Sohibqiron Amir Temur, so‘ng uning nabirasi Mirzo Ulug‘bek davri, yana ikki asr o‘tib, XVII asrning birinchi yarmida (o‘sha vaqtda Samarqand Ashtarxoniyalar sulolasi hukmdori bo‘lgan Buxoro xonligi tasarrufida bo‘lgan) hokim Yalang‘o‘sh Bahodir zamonlarida gullab-yashnagan moziydan ma‘lum. Ammo muarrixlar undan keyingi pallalar haqida ko‘p so‘zlamaydilar. Buning sababi oddiy: chunki undan so‘ng shaharning o‘tmishida tanazzul davri kechgan... Ko‘p uzoqqa borish shart emas. XIX-XX asrlardagi avval Chor Rossiyasi, keyin bolsheviklar bosqinida u katta talafotlar ko‘rganini barchamiz yaxshi bilamiz. "Tenglar ichra teng" bo‘lgan yoki istiqlol tongi otgan ilk yillar ham ko‘hna kent tarixida ta‘sirchan ahamiyat kasb etmadi.

Sovet hokimiyatining Samarqanddan ko‘zlagan maqsadi ancha ustakorlik bilan o‘ylab topilgandi: mustabid ideologiya

Buyuk o‘zbek yo‘li

shahar xarobalari va o‘tmishini ko‘z-ko‘z qilish orqali dahriy va repressiv imperiyani islom va sharq madaniyati homiysi sifatida taqdim etish, undan umuntarix va qadriyatlar vitrinasi — multikulturalizm, ya‘ni sovetcha tenglik hamda bag‘rikenglikni ko‘rsatish uchun foydalanardi. Mustaqillikdan keyin bu qadimiy kentga bo‘lgan e‘tibor boshqa tomonga og‘di. Endi unga ko‘proq o‘zlikni topish, ruhiyatdagi posttotalitar holatni deformatsiyalash uchun qo‘llaniladigan vosita o‘laroq yondashila boshlandi. To‘g‘ri, ayni yangilanishlarni shunchaki formal o‘zgarishlar edi, deiyish adolatdan bo‘lmaydi. Chunki obidalar, qadamjolar, me‘moriy yodgorliklarni tiklash va obod qilish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Ammo bu harakatlar shaharning qadimiy shuhratini

tiklash va eng muhimi, uning asriy ruhiyatini qayta uyg‘otishdek qudratini namoyon eta olmadi.

Nega? Chunki istak va harakat qanchalik samimiy va ko‘lamli bo‘lmasin, ularda shaharning tarixiy xotirasi va mohiyatini to‘liq tiklash uchun zarur bo‘lgan ichki mazmun va uyg‘unlik yetishmadi. Jo‘ngina aytganda, shonli o‘tmishi, ma‘naviy identligi unga "tarix ikonasi" sifatida qarashdek uzoq yillar ongimizda shakllangan glamur tasavvurlar soyasida qoldi.

Aslida, Samarqandni tushunish, jug‘rofiy ahamiyatini aniqlab olish o‘ta muhim edi. Nimaga desangiz, bu ko‘hna zamin faqat moziy osori atqalariga emas, balki uning bag‘rida ming yillardan buyon yashab kelayotgan xalq uchun ham vatan sanalardi.

Buni to‘g‘ri anglash uchun bizga xiyla uzoq vaqt kerak bo‘ldi.

Ayni masalada fikr yuritishni bir nafas kechiktirib, diqqatimizni bugungi kunlarga qaytarsak.

O‘tayotgan o‘n yillik Samarqand hayotida yangi davrni boshlab berdi. Men bugungi maqolada ayni o‘zgarishlarni mufassal sharhlash fikridan yiroqman. Zotan, shaharning hozirgi qiyofasi, u yerda olib borilgan bunyodkorliklar haqida hammamiz yaxshi bilamiz. Bir paytlar Sohibqironning qudratli saltanatiga boshkent bo‘lgan, olamni o‘ziga mahliyo aylagan, xorijiy sayyohlar va siyosatchilar qadami uzilmagan shahar bugun asl shavkatini tiklayotganini barchamiz sezib turibmiz. Hech mubolag‘asiz aytish mumkin, uzoq tanaffusdan so‘ng u yana dunyo siyosatchilari, iqtisodchilari yig‘ilib maslahatlashadigan xalqaro diplomatiya sahnasiga aylandi. Kelayotgan xorijlik mehmonlar, hatto, sayyohlar og‘zidan ham bir e‘tirofni ko‘p eshitish mumkin bugun: "Samarqandga ertaklardagi, tarix kitoblaridagi jozibasi qaytibdi!".

Endi aytgim, odamlardagi taassurotni yangilash, zamonlar yuki monolitday quyib qo‘ygan stereotiplarni parchalash o‘z-o‘zidan bo‘ladi deb o‘ylaysizmi?! Iddoamiz bekorga emas. Zotan, shaharning ko‘rku tarovati faqat besh-o‘nta me‘moriy yodgorlik bilan o‘lchanmaydi. Qolaversa, "o‘tmish ruhi" tasavvuri chechan gidrlarning maroqli hikoyalari orqali to‘liq shakllanadi deb qarash ham unchalik to‘g‘ri emas.

Qadim tarovatni uyg‘otish faqat bir amal — ko‘hna devorlar, tuproqlar qa‘rida ko‘milib yotgan madaniy ohanglariga tan. Ulami harakatga keltirish uchun esa tarixiy-ruhiy hayot qatlamini qayta ko‘rib chiqish talab etilardi. Ya‘ni nafaqat shahar, balki butun yon-atrofdagi madaniy hayotni tubdan o‘zgartirish, ilmiy tilda aytganda, jamiyat hayotini desovetizatsiya — mustamlakachilikning barcha meroslaridan tozalashni nazarda tutardi. O‘z-o‘zidan ravshanki, bu katta masshtabdagi yumush edi. Shu ma‘noda aytadigan bo‘lsak, Samarqandning qayta "oyoqqa turishi" oson kechdi degan odam adashadi.

Davomi 2-, 3-betlarda

BUNYODKORLIK LOYIHALARI TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev turli sohalardagi bunyodkorlik loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbariga Andijon viloyati Bobur shahrida barpo etiladigan me‘moriy ansambl tarkibida buyuk davlat arbobi, sarkarda va shoir Zahiriddin Muhammad Boburga bag‘ishlangan muhtasham haykal o‘rnatish loyihasi taqdimot qilindi.

Buyuk ajdodimiz xotirasini munosib ulug‘lash, uning boy ilmiy-adabiy merosi, davlatchilik tafakkuri va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan beqiyos hissasini yosh avlodga chuqur yetkazish maqsadida ushbu yodgorlikni alohida mazmun va badiiy yechim asosida yaratishga muhim e‘tibor berilmoqda.

Prezidentimizga bo‘lajak haykalning eskizlari, kompozitsion yechimi va Bobur siyomosini aks ettirish bo‘yicha ilmiy-badiiy yondashuvlar haqida axborot berildi. Qayd etilganidek, buyuk tarixiy shaxs obrazi yurtimiz olimlari tomonidan xorijiy hamkasblar bilan hamkorlikda olib borilgan tadqiqotlar, ko‘plab tarixiy manbalar, qo‘lyozmalar, miniatyuralar va madaniy meros namunalari chuqur o‘rganish asosida yaratilmoqda.

Shu bilan birga, Prezidentimizning Pokistonga davlat tashrifi doirasida Islomobod shahridagi bog‘lardan biri

Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan atalgan edi. Mazkur bog‘da ham buyuk ajdodimizga o‘rnatiladigan haykal loyihasi ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari yodgorliklarni yaratishda Zahiriddin Muhammad Bobur siyomosini nafaqat buyuk adib va shoir, balki mohir sarkarda, qudratli davlat asoschisi va donishmand hukmdor sifatida teran ochib berish zarurligini ta‘kidladi. Uning irodasi, davlatchilik salohiyati, yuksak ma‘naviyati va bunyodkorlik g‘oyalari haykalning umumiy qiyofasida yaqqol ifoda topishi lozimligi qayd etildi.

Prezidentimizga Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internati moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, Buxoro shahrida turizm va transport infratuzilmasini rivojlantirish, tumanlardagi madaniyat uylarini modernizatsiya qilish yuzasidan ishlab chiqilayotgan loyihalar to‘g‘risida ham axborot berildi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni yanada takomillashtirib, ilg‘or tajriba asosida puxta ishlab chiqish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

MUBORAK QURBON HAYITINI NISHONLASH TO‘G‘RISIDA

Bugungi kunda jamiyatimiz hayotida "Inson qadri uchun, inson baxti uchun", degan ezgu g‘oyani chuqur qaror toptirishda barcha milliy va diniy qadriyatlarimiz qatori insonparvarlik, saxovat, shukronalik va bag‘rikenglik kabi olijanob fazilatlarini o‘zida mujassam etgan muborak qurbon hayiti ham g‘oyat muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda ijtimoiy davlat barpo etish, yurtdoshlarimiz o‘rtasida mehroqibatni kuchaytirish, yordamga muhtoj insonlarni qo‘llab-quvvatlash, hech kimni mehr va e‘tibordan chetda qoldirmaslik borasida bu bayramning bezavol an‘analari biz uchun kuch-g‘ayrat va ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Qurbon hayitini ana shu jarayonlarga mos holda munosib nishonlash, yurtimizda tinchlik-osoysihtalik, do‘stlik va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash maqsadida qaror qilaman:

1. O‘zbekiston musulmonlari idorasining 2026-yilda muborak Qurbon hayitining birinchi kuni 27-may — chorshanba kuniga to‘g‘ri kelishi haqidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinib, mamlakatimizda 27-may Qurbon hayiti bayrami sifatida keng nishonlansin.

2. Quyidagilar ma‘lumot uchun qabul qilsin:

a) Mehnat kodeksining 208-moddasiga muvofiq, **Qurbon hayitining birinchi kuni ishlanmaydigan bayram kuni** sifatida belgilangani;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabr-dagi "2026-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida"gi PF-257-son Farmoni bilan quyidagilar qo‘shimcha dam olish kuni sifatida belgilangani:

(i) ish haftasining turidan qat‘iy nazar barcha xodimlar uchun 2026-yilning 28-may — **payshanba, 29-may — juma kunlari;**

(ii) olti kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun 30-may — **shanba kuni.**

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston

mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda hududlarda Qurbon hayitini xalqimizning milliy an‘ana va urf-odatlariga uyg‘un holda, ko‘tarinki kayfiyatda o‘tkazish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Turizm qo‘mitasi Transport vazirligi bilan birgalikda yurt-doshlarimiz uchun Qurbon hayiti kunlarida mo‘tabar ziyoratgohlar va tarixiy qadamjolar ziyoratlarini tashkil etish maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yaratsin.

5. O‘zbekiston Milliy teleradio-kompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Qurbon hayitini nishonlash bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi S.U.Umurzakov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri, 2026-yil 20-may

IPO
UzNIF
Investitsiya oqimi darvozasi ochildi

O‘zbekiston Milliy investitsiya jam‘armasining 2 milliard 400 million dollarlik davlat aktivlari har kuni yirik bitimlar tuziladigan London fond birjasidagi eng salmoqli aksiyaga aylandi. Ushbu voqea 2021-yildan buyon birja tarixidagi eng yirik davlat aktividir. Bu nafaqat O‘zbekistonning ilk xalqaro IPOsi, balki yuqori o‘sish sur‘atiga ega iqtisodiyotga ko‘proq global investitsiyalar oqimini jalb qilish uchun darvozalarning ochilishi ham.

Davomi 4-beta

2026-yil 21-may, 102-son

Xalqaro e'tirof



Investitsiya oqimi darvozasi ochildi

Boshlanishi 1-betda

Biz bu jarayonga kichik bo'lsa-da, hissa qo'shayotganimizdan faxrlanamiz. Ushbu IPO London va Toshkent uchun yangi sahifa ochadi. Menimcha, ushbu natija orqali xalqaro investorlar O'zbekistonning uzoq muddatli salohiyatini qanday baholayotganini yaqqol ko'rish mumkin. Fondga talabning kutilganidan yuqori bo'lgani va undan keyingi narx ko'rsatkichlari xalqaro investorlar O'zbekistondagi islohotlar dasturiga va mamlakat iqtisodiyoti taqdim etayotgan imkoniyatlarga katta e'tibor qaratayotganidan darak beradi.

Fikrimcha, islohotlar dasturining izchilligi, iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va fond tarkibidagi aktivlarning xilma-xilligi investorlar aynan nimanani sotib olishni istayotganini aks ettiradi. Investorlar yuqori o'sishni namoyon etayotgan va katta imkoniyatlar yaratib berayotgan mamlakatlarga sarmoya kiritishni istaydi.

O'zbekiston Milliy investitsiya jamg'armasining IPOsi esa mamlakatning eng muhim kompaniyalarini birlashtiradi. Shu bilan birga, xalqaro investorlarga



Juliya HOGGET,
London fond birjasi
bosh ijrochi direktori

yetakchi xalqaro aktivlar boshqaruvchisi tomonidan boshqariladigan yagona portfel orqali O'zbekistonning o'sish yo'lida ishtirok etish imkoniyatini taqdim etadi.

Hozirgacha bo'lgan eng yirik mahalliy listing

O'zbekiston Milliy investitsiya jamg'armasining muvaffaqiyatli IPOsidan benihoya xursandman. Ushbu yutuq O'zbekiston uchun ham, fondning ishonchli boshqaruvchisi va menejeri bo'lgan “Franklin Templeton” uchun ham hal qiluvchi va tarixiy bosqichni anglatadi.



Jenni JONSON,
“Franklin Templeton”
kompaniyasining xalqaro
bosh ijrochi direktori

Biz O'zbekistonning ilk xalqaro aksiyalarini muvaffaqiyatli taklif qilib, mamlakatga global investorlar e'tiborini qaratganimizdan g'oyat faxrlanamiz. IPO jarayoni davomida bu muvaffaqiyat shunday qisqa muddatda kuchli qo'llab-quvvatlovchi amalga oshmas edi. IPOga global miqdorsiz bildirilgan qiziqish darajasi 2,8 milliard dollardan

Bu yakun emas...

Memimcha, IPOning o'ziyoq butun dunyo investorlari O'zbekistonga katta qiziqish bildirayotganining yorqin isboti. Bu so'nggi besh yilda “London Stock Exchange”dagi eng yirik ko'rsatkich bo'ldi. Shuningdek, bitimga juda yuqori talab kuzatildi. Ya'ni investorlar qiziqishi yakuniy bitim hajmidan bir necha baravar ko'p.

Muhimi, biz ushbu IPOni yakuniy voqea deb emas, balki yangi bosqichning boshlanishi deb bilamiz. Bu Milliy investitsiya jamg'armasi uchun ham, O'zbekiston uchun ham yangi yo'lning ibtidosidir. Eng asosiysi, Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari va rahbarligidir. Xususan, so'nggi 10 yildagi islohotlar investorlarga yurtingiz biznes uchun ochiq ekanini ko'rsatishda juda muhim o'rin tutadi.

Bundan tashqari, aholisining katta qismini yoshlar tashkil etuvchi va iqtisodiy jadal rivojlanayotgan O'zbekiston katta salohiyatga ega mamlakat. Investorlar aynan mana shu imkoniyatlarni ko'rmoqda va bu IPOning muvaffaqiyati ham shuning tasdiqidir.

Bu nafaqat O'zbekiston, balki biz kabi moliya bozori ishtirokchilari uchun ham tarixiy ahamiyatga ega. O'zbekiston hukumati bilan hamkorligimiz biz uchun mahalliy va xalqaro investorlarning

O'zbekistondagi investitsiya muhitiga kirishini ta'minlashda katta imkoniyat bo'ldi. Shu bois, bu yerda juda yaxshi hamkorlik shakllanganini ko'ryapmiz.

Biz mamlakatimiz bilan hamkorlikni davom ettirishni va bu sheriklik yanada rivojlanishini istaymiz. Bugun O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar yo'nalishida katta rivojlanishlarni kuzatayapmiz. Shu sababli bundan buyon ham davomli va izchil hamkorlikdan umidvormiz.

Manraj SEXON,
“Templeton asset management”
va “Templeton global investment”
kompaniyalari bosh ijrochi direktori



Yangicha yondashuvlar

HAM GURUCH, BALIQ

O'zbekistonda ilk bor suv yuzasida sholi yetishtirilmogda

Dunyo aholisi, ayniqsa, osiyoliklar uchun guruch asosiy iste'mol mahsulotlaridan. Xalqaro bozorda ushbu mahsulotga talab doim yuqori. Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yilgi mavsumda jahon bo'yicha 542 million tonnagacha sholi yetishtirilgan bo'lib, bu qishloq xo'jaligi tarixidagi eng yuqori ko'rsatkichlardan. Hosilning asosiy qismi esa bugunga qadar asrlar davomida saqlanib kelayotgan an'anaviy usul — urug' ekilganidan keyin uni suvga bostirib qo'yish texnologiyasi orqali yetishtiriladi.

Xitoy, Malayziya, Vyetnam, Tailand kabi mamlakatlarda yo'lga qo'yilgan. Bu usulda sholi odatdagidek tuproqli yerda emas, balki tabiiy yoki sun'iy ko'llar yuzasida yetishtiriladi. Mazkur davlatlarda tabiiy ko'llar ko'pligi bois, sholi ana shu suv havzalari yuzasida pishib yetiladi. Biz esa yurtimizdagi baliqchilik xo'jaliklarida tajriba qilib ko'rishga qaror qildik. Bu texnologiya O'zbekiston amaliyotida yangilik bo'lib, natijasi o'zimizga ham qiziq. Shu bois, innovatsion usulning amaliy natijalari mutaxassislar tomonidan muntazam o'rganib borilmoqda.

Ushbu usul suvdan unumli foydalanish barobarida organik mahsulot yetishtirish imkonini beradi, — deydi Abdullo Mansurov. Sababi, baliq uchun solinadigan ozuqa maddalari suv muhitida tabiiy o'g'it vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, baliqlarning sholi ildiz tizimi bilan o'zaro ta'siri o'simlikning o'suvchanligini oshirib, hosildorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada ekologik toza va yuqori sifatli mahsulot olinadi. Baliqchilik xo'jaliklari rahbarlarining aytishicha, bu texnologiya baliqlarning o'sishi uchun ham foydali bo'lishi mumkin. Masalan, kam isib ketgan vaqtlar, odatda, baliqlar soyaga o'tib,

yil foydalanish mumkin. Bu mahsulotlar tajriba uchun Xitoydan olib kelinganiga qaraganda, yurtimizda ham bor. Keyinchalik to'liq mahalliy vositalardan foydalanish rejalashtirilgan. Qolaversa, po'kaklar odatda qayta ishlangan mahsulotdan tayyorlangani bois, narxi ancha arzon turadi. Agar yurtimizda suv yuzasida sholi yetishtirish texnologiyasi ommalashib ketsa, sanoatda ishlab chiqarishning yangi quvvatlari paydo bo'lishiga ham turki berar ekan.

Bundan tashqari, suvda sholi yetishtirganda yerni shudgor qilish va boshqa agrotadbirlarga ham zarurat bo'lmaydi. Mineral o'g'itlar tejaladi. Boisi, baliqlarga beriladigan ba'zi o'g'itlar aynan sholi uchun kerakli ozuqa vazifasini o'taydi. Kimyoviy dorilardan foydalanilmagan hisobiga organik mahsulot yetishtiriladi. Hosildorlik o'racha 50-55 sentner bo'lishi taxmin qilingan. Bu tuproqda yetishtiriladigan hosil bilan deyarli bir xil.

Oktabrda ilk hosil olinadi

Yangi tajriba uchun sholi ham urug', ham ko'chatlash usulida ekib ko'rildi. Hozir ko'chatlar o'zini ancha tutib olgan, urug'larning o'sishi ham yomon emas. Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan O'zbekiston amaliyotida sholini ko'chat usulida ekishga o'tilyapti. Keyinchalik o'simlik asosan shu tarzda yetishtiriladi. Hatto Janubiy Koreyaning KOPIA xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikda ko'chat ekadigan zamonaviy texnika olib kelingan. Ko'chatlar issiqxonada, maxsus iqlim sharoitida tayyorlanadi. Bu sholining vegetatsiya davri qisqartirib, suv va urug'likni sezilarli tejaydi. Qolaversa, sholi ko'chati tezroq yetilib, hosildorlik ham yuqori bo'ladi.



Po'kaklar suvda soya vazifasini ham bajaradi


Tajriba Farg'ona viloyati Yozyovon tumani, Namangan viloyati Mingbuloq tumani hamda Toshkent viloyati Quyi Chirchiq va Bekobod tumanlaridagi bir qancha baliqchilik xo'jaliklarida sinovdan o'tkazilyapti. Xususan, Quyi Chirchiq tumanidagi “TCT Fish Cluster” klasterining baliq parvarishlanadigan havzalaridan bir gektari ajratilib, suv yuzasiga sholi ekildi.

Bunda sholi urug'i yoki ko'chatlari to'g'ridan to'g'ri suvga solinmaydi. Avval ular maxsus tuvaklarga ekilib, so'ng har bir tuvak turli kattaligidagi po'kak (penoplast) lar orasiga o'rnatiladi. Keyin yin bu po'kaklar suv yuzasiga qo'yilib, bir uchi yerga bog'lanadi. Po'kak suvda muntazam qalqib turgani uchun ham “suzuvchi sholi usuli”, deb ta'rifiylanadi.

Mutaxassislarining tushuntirishicha, sholi ekiladigan tuvak va penoplastlar Xitoydan olib kelingan. Ularning hajmi va oraliq masofasi ham Xitoy texnologiyasi asosida tanlangan. Maxsus po'kaklarning uzunligi 120, kengligi 60 santimetr. Har biring ustiga 26 tadan tuvak o'rnatilgan. Tuvaklar hajmi 15 santimetr, qatorlari orasi esa 7 santimetr. Har bir tuvak ichiga 20 kunlik tayyor sholi ko'chatlari yoki urug'i solinib, 250 gramm dan tuproq va biogumus aralashmasi bilan to'ldirilgan. Bitta tuvakka 3-4 tadan ko'chat ekilgan.

Tuvaklarning suvga tegib turadigan tag qismi teshik bo'ladi va o'simlik ildizi pastga tushib, gidroponika usulida suvdan ozuqa oladi. To sholi pishib yetilguncha qadar tuvaklar suv yuzasida shu holatda turadi. Qarabizki, baliq boqiladigan sun'iy suv havzalarda bir vaqtning o'zida sholi ham yetishtiriladi, unga ana shu tayyor suvdan ortiqcha manba kerak bo'lmaydi. Suv zaxiralari tobora kamayib ketayotgan hozirgi sharoitda bu guruh yetishtirishning eng tejamon va zamonaviy usuli ekanini aytayotganlaricha bor.

oziqlanmay qo'yarkan. Suv yuzasidagi sholi solingan po'kaklar esa baliqlarga soya berib turadi. Issiq paytlarda baliqlar ana shu soya tagida oziqlanishda davom etadi. Umuman, xorij tajribasida mazkur usulning salbiy jihatlari haqida gapirilmagan. Ammo biz bu boradagi ehtimollarni ham o'ylaganmiz. Masalan, ba'zi baliq turlari sholining tuvak teshigidan chiqadigan ildizini yeb qo'yishi mumkin. Ammo bu xavfli emas. Chunki tuvak



ichida ham o'simlik ildizi bo'ladi. Tashqaridagi ildizning qaytadan chiqishi esa hosildorlikni yanada oshiradi.

Suv yuzasiga joylashtirilgan po'kaklarning orasi zich bo'lmaydi, 5-6 metr masofada ochiq qoldirilib, bir-biriga ulanadi. Aytaylik, 1 gektar baliq hovuzi bo'lsa, shundan 40-50 sotixini po'kaklar egallaydi. Qolgan qismi esa ochiq qoldiriladi. Chunki suv tagidagi baliqlar uchun yorug'lik cheklanib qolmasligi kerak. Shuning o'zida ham yaxshigina miqdorda sholi yetishtirish imkoniyati bo'ladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda 176 ta baliqchilik xo'jaligi bo'lib, ularning umumiy maydoni 576 ming gektarni tashkil etadi. Mamlakatimizdagi sholi maydoni esa 140 ming gektar. Mavjud yer maydonida hosil yetishtirish davomida gektariga 20 ming kub metr dan ziyod suv sarflanar ekan. Bu yer maydoniga nisbatan suv yuzasida sholi yetishtirish uchun imkoniyat ko'proq ekanini ko'rsatadi. Birinchidan, yurtimizda birgina baliqchilik xo'jaliklaridagi maydonning o'zi sholi yerlaridan to'rt barobar katta. Qolaversa, ularda sholi uchun qo'shimcha suvga talab bo'lmaydi. Agar mavjud baliqchilik xo'jaliklarining 10-20 foizida sholi yetishtirilsa ham qancha suv tejalisini tasavvur qilavering.

Sarf-xarajatlarga kelsak, suv yuzasida sholi yetishtirilganda, birinchi yili nisbatan ko'proq xarajat talab etiladi. Ko'chatdan tashqari, maxsus tuvak va po'kaklarni sotib olishga to'g'ri keladi. Keyingi yillari esa ularga xarajat qilinmaydi. Chunki tuvak va po'kaklardan 4-5-



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

